ShaffofQurilish

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"DISTRICT DESIGN EXPERT" MCHJ

Holati: Ijobiy
Direktor: Raxmonov Mirsaid Raximjonovich
Sana: 26-12-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

227442 - SONLI

Obyekt nomi: 1-qavatida savdo maishiy hizmat ko'rsatish shaxobchasi, 2, 3 qavatlarida turar-joy binosi	
Buyurtmachi:	BABAYEV TOXIRJON MUXSINOVICH
Bosh loyihachi:	"ARCHPROJECT-MAX" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	BABAYEV TOXIRJON MUXSINOVICH
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	045093

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Chust tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo’limining 05.11.2024 yildagi 146449161 -sonli ruxsatnomasi.
1.2. Namangan viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 2024-11-14 yildagi 1714-1714237-205744 -sonli arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.3. Buyurtmachi “BABAYEV TOXIRJON MUXSINOVICH” tomonidan 2024 yildagi tasdiqlangan loyihalash topshirig‘i. 1.4. Namangan viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 2024-12-07 yildagi 158132130 -sonli Kengash xulosasi.
1.5. 2024-yilda «STORY MAX PROEKT» MCHJ tomonidan bajarilgan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risidagi xulosa. 1.6. Davlat ekologik ekspertizasi markazi Namangan viloyati filialining 12.09.2024 -yildagi 01-02/07-965 -sonli Davlat ekologiya ekspertiza xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. “Ishchi loyixa”ni ishlab chiqish bosqichidagi loyixa hujjatlari:
- umumiy tushuntirish yozuvi xamda loyixalash topshirig‘i.
- 1-qavatida Savdo va Maishiy hizmat ko’rsatish,2-3-qavatlarida turar-joy binosi (AS,PS,EO,VK,OV Fasad,GP).
-Geologiya xulosasi.
-Kengash xulosasi.
-Tuman qurilish bo‘limi bilan kelishilgan xudud chegarasi(qizil chiziq)

- Bosh reja va tashqi muxandislik tarmoqlari.
- Qurilish qiymatining tavsiyaviy qismi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish uchastkasi tavsifi.

Loyixalanayotgan 1-qavatida savdo va maishiy hizmat ko'rsatish,2-3-qavatlarida turar-joy binosi Namangan viloyati, Chust tumani Pansada MFY, xududida joylashgan bo'lib, tanlangan joy IV iqlimiy sharoitga to'g'ri keladi. Zilzilaga bardoshliligi bo'yicha -8 ball. Tashqi havo harorati 140s. Me'yoriy qor yuklamasi – 0.50 kPa va shamol yuklamasi – 0.38 kPa. Yerning seysmik hol ati bo'yicha toifasi – II. Yer osti suvlari 9 metr chuqurlikkacha aniqlanmagan. Yerni tuzilish re lefi – tekis. 3.2. Qurilish maydoni

Loyixalanayotgan 1-qavatida Savdo va Maishiy hizmat ko'rsatish,2-3-qavatlarida turar-joy binosi Namangan viloyati, Chust tumani Pansada MFY xududida joylashgan. Umumiy maydoni 400 m2 ni tashkil qiladi.

3.3. Bosh reja

Qurilish maydoni 315 m2 ga yer maydonida joylashgan: Loyixalanayotgan 1-qavatida savdo va maishiy hizmat ko'rsatish,2-3-qavatlarida turar-joy binosi yer maydoni quyidagicha chegaralangan: Shimol tomondan bo`sh yer maydon Janub tomondan bo`sh yer maydon Sharq tomondan Noturar bino inshootlar G'arb tomondan Avtomabil yo`li bilan chegaralangan. Xudud obodonlashtiriladi va ko'kalamzorlashtiriladi. 3.4. Loyixaning asosiy yechimlari.

1. Loyixalanayotgan 1-qavatida Savdo va Maishiy hizmat ko'rsatish,2-3-qavatlarida turar-joy binosi pishiq g'ishtdan to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, "A-V" va "1-6" o'qlari orasida 12.40 m x 24.00 m ni tashkil etadi. 1qavat xonalar balandligi – 3.80 m, 2,3-qavat xonalar balandligi-3.30m, erto'la qismi balandligi-3.00m, binoni umumiy balandligi –12.70 m ni tashkil etadi.

Konstruktiv yechimi.

Poydevor – yahlit tasmasimon temir – betondan, beton markasi B15.

Devorlar –380 mm qalinlikdagi pishiq g'ishtdan. Armokarkasli D 5 armatura bilan. G'isht markasi M75, beton qorishma markasi M50,II-toifa g'isht terish usulida.

Pardadevor - pishiq g'ishtdan 120 mm qalinlikda.

O'zaklar va sarbastalar – yaxlik quyma temir betondan, beton markasi B15,B20

Ramalar – yaxlit quyma temir betondan, beton markasi B20.

Tomyopma– temir beton plitalari va Yaxlit quyma temir beton plitalari B20.

Tom – metal ferma asosida profnastil qoplama

Zinapoyalar–Yaxlit quyma beton markasi B20

Framuga va derazalar – plastik profil.

Eshiklar – Alyumin profil, MDF va temir eshiklar.

Pol – laminat, keramik plitka, beton koplamasi.

Ichki muxandislik tarmoqlari.

Elektr qismi. Loyixada 220V kuchlanish asosiy yoritish tarmog'i xisoblanadi. Binoni yoritish qurilish me'yorlari va qoidalariga muvofik qabul qilingan. Guruxli yoritish Tapmog'i AVVG kabeldan suvoq ortida yashirin xolda loyihalangan bo'lib, SHS etaj shitlari o'rnatilishi xisobga olingan, Magistral tarmoqlari AVVG va VVG kabelidan polietilen quvurlar yordamida yotqizilgan. Bosh taqsiml ash qurilmasi sifatida VRU1-27-65 UXL foydalanilgan.

Yong'in xavfsizligi. Loyixada binoning o'tga chidamlilik darajasi o'tga chidamlilik chegaralari va inshootlarning yong'in guruhlariga javob berishini ta'minlash kuzda tutilgan. Binoning tashqi qismida yerdan 2.5 metr balandlikda yong'inni xabarini beruvchi "SUZ" markali yuqori tovushli moslama o'rnatiladi. Binodagi eshiklar odamlarni evakuatsiya qilish yo'nalishida ochiladi. Chordoq tomining yonuvchi konstruksiyalari olovga bardoshlilik va antiseptiklar bilan ishlov beriladi. Energiya tejamkorlik.

Energiya tejamkorligini ta'minlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi: QMK 2.01.04-97*; QMK 2.04.05-97* va QMK 2.01.18-00* talablari asosida.

Romlar – plastik profildan ikki qavat oynali, yon tomonlari sement-qum suvoq va moyli buyoq bilan ikki marta bo‘yalgan.

Devorlar - devorlarni tashki tomondan 50 mm qalinlikdagi mineral plitalar (bazalt) bilan izolyatsiya qatlami.

Pollar –ko‘pikli polietilendan izolyatsiya qatlami. Bino yo‘laklar va zinalari xarakat sezuvchi qurilma o‘rnatish nazarda tutilgan, umumiy elektr energiyasini 30% qismi quyosh panellari xisobidan ta’minlanadi, tashqi chiroqlar quyosh panellaridan elektr quvvati bilan ta’minlananishi ko‘zda tutilgan.

3.5. Qurilish davomiyligi. Qurilish davomiyligi – 12 oy

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Suvta’minoti– “Namangan Suv Ta’minoti ” MCHJ Chust tumani bo‘limining texnik shartida qo‘yilgan talablari bajarilsin.

4.2. Elektr ta’minoti- “Namangan xududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ Chust tumani bo’limining texnik shartlariga muvofiq nazarda tutilgan.

4.3. Gazlashtirish nazarda tutilmagan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- Bosh reja, fasad chizmasi Namangan viloyat Qurilish va uy-joy kommunal bosh boshqarmasi bilan kelishilgan.

-Davlat ekologik ekspertizasi markazi Namangan viloyati filialining 12.09.2024 -yildagi 01-02/07-965 -sonli Davlat ekologiya ekspertiza xulosasi -taqdim etildi.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ta’kidlansinki, ekspertiza qarori jarayonida loyixa xujjatlariga quyidagi o‘zgartirish va qo‘ shimchalar kiritildi (muayyan ekspertiza xulosasidagi kamchiliklarga ko‘ra): 6.1.1.Ishchi loyixa barcha xujjatlarida obyekti nomi – muvofiqlashtirildi. 6.1.2. Loyixa topshirig‘i “BABAYEV TOXIRJON MUXSINOVICH” bilan kelishilgan.

6.1.3. Imzolangan va tasdiqlangan topotasvir chizmasi – taqdim etildi.

6.1.4. Bosh rejada trotuar va ichki yullar qoplamali turi - o‘zgartirildi. Maishiy xizmat ko‘rsatish shaxobchasi.

6.1.5. Umumiy ma’lumotlar varog‘ida yuk va seysmik nagruzkani qabul qiluvchi konstruksiya to‘g‘risida ma’lumot berildi.

6.1.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi PQ-4779 sonli qaroriva Qurilish vazirligining 17.07.2020 y. 198sonli buyrug‘iga asosan elektr ene rgiyasini
ishlab chiqaruvchi quyosh panel tizimlarini loyixalangan.

6.1.7. Bino poydevori va konstruksiyalarini xisobi - taqdimetildi.

6.1.8. O‘zaklaruchun armatura diametri 2.130-6s seriyasigamuvofiq - o‘zgartirildi.

6.1.9.Bino konstruksiyasining xisobi natijalari asosida kolonnadagi armatura diametri to‘g‘rilandi.

6.1.10.Sr-5 o‘zaklarchizmasi -ishlandi. 6.1.11.Qurilish me’yor talablariga asosan ora qavat pol ostiga ovoz so‘ndirgich (zvukoizolyatsiya) –ko‘zda tutilgan.

6.1.12.SHNQ 2.08.01-19 muvofik zina to‘siqlar balandligi o‘zgartirildi

6.1.14.Chordoq chizmasi – ishlandi.

Muxandislik ta’minoti Kuchsiz tok

6.1.15.SHNQ 2.08.01-19 6-bandiga muvofiq sex, oshxonalari va yordamchi xonalar ichi yo‘laklari yong‘indan signalizatsiyasi bilan jihozlandi.

Shamollatish

6.1.28. Oshxona qismi xonalarini shamollatish loyixa yechimlari – ko‘zda tutildi. 6.1.29.SHNQ 2.04.08 -13 ning 6.38 va SHNQ 2.08.01-05 ning 9.38 bandlariga muvofiq mustaqil alohida – alohida xavo tortuvchi kanallar – ko‘zda tutilgan.

7. Xulosalar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021 yildagi 579-son qarori,1-ilovasi, 3-bob, 29-bandiga muvofiq ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari buyurtmachi hamda loyiha tashkilotiga yuklatiladi. Xulosalar. Namangan viloyati, Chust tumani Pansada MFY xududida joylashgan “BABAYEV TOXIRJON MUXSINOVICH” ga qarashli 1-qavatida savdo va maishiy hizmat ko’rsatish,2-3-qavatlarida turar-joy shahobchasi” bino inshootlarini qurishi loyihasi ekspertiza natijalarini xisobga olgan xolda kelgusida ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun nuqsonlarni bartaraf etilgan xolda tavsiya etiladi.

Bosh mutaxassis:	**M.Raxmonov**
Ekspertlar:	**S. Begmurodov**
	O. Sultonov